

Qadimiy Xorazm hududidagi paxsadevor obidalarning umri uzayadi

Joriy yil 28-martdan 10-aprelgacha Xiva shahrida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining umumlashgan madaniy meroslar dasturi doirasida "Loy arxitekturasini saqlash" mavzusida seminar-trening o'tkazildi. Xorazm Ma'mun akademiyasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan ushbu ilmiy-amaliy seminarda olimlar va tarixiy-me'moriy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash hamda targ'ib qilish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ishtirok etishdi.





Tadqiq etilgan devorlar paxsadan IV-III, XI, XX - asrlarda tiklangan. Ushbu devorlar atmosfera ta'siridan himoyalangan bo'lib, 2500-3000 yil davomida yomg'ir, shamol, qor va quyosh ta'sirida ochiq holda turibdi. Davomli noqulay ekologik sharoitda devorlar yemirilib, buzila boshlagan. Devorlarning 30-50% i yo'qolib ketgan, ko'pchilik devorlarda yoriqlar paydo bo'lgan.

Xiva shahridagi gil xom ashyodan, xom g'isht va paxsadan bunyod etilgan Deshon Qal'a devorlarini an'anaviy tajribalarga tayanib, badiylikni yo'qotmagan holda ba'zi qismlarini konservatsiya qilish, qayta tiklash hamda to'g'ri ta'mirlash bo'yicha ishtirokchilarning fikr-mulohazalari, takliflari atroflicha o'rganildi.

"Ma'lumki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki O'zbekistonda, shu jumladan, Xorazm viloyati, Xiva shahridagi madaniy merosni asrab-avaylash ishlarini rivojlantirish, bu sohaga sarmoyalar kiritish, binobarin turizm sohasining taraqqiyotiga hissa qo'shishni niyat qilgan", - deydi trening tashkilotchisi, Fransiyaning Grenobol shahridan tashrif buyurgan mutaxassis Sebastyan Moriset.

Demak, Janubiy Orolbo'yidagi har bir tarixiy obidani monitoring qilish, ilmiy o'rganish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan bittasidir. Ayniqsa, ushbu tadqiqot ishlari bugungi kunda ekologik yomon muhitda joylashgan Qoraqalpog'iston va Xorazm tarixiy me'moriy yodgorliklarini saqlashga oid bo'lganligi bois, uning ahamiyati juda kattadir. O'ylaymizki, ushbu ilmiy tadqiqotda keltirilgan paxsadevor obidalari va ularni saqlashga oid bo'lgan tadqiqot natijalari mintaqada turizmni rivojlantirishga doir amaliy ishlarga asos bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, respublikamiz tarixiy yodgorliklarni saqlash bo'yicha yangi ilmiy metodik (turli xil gidrofoblik xususiyatini oshiruvchi indikatorlar ishlatiladi) tadbirlarimiz muvaffaqiyatli bajarilsa, Janubiy Orolbo'yidagi dunyo tamaddunida o'z o'rnini bo'lgan - 100dan ortiq qal'alarni saqlash va umrini uzaytirish masalalariga yechim topiladi.